O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori v.v.b
Z.Ya.Raxmanov
«____»_____2026 yil

«MA’QULLANDI»
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK raisi
A.T. Yusupov
«____»_____2026 yil

19.00.03 – «Inson kasbiy faoliyati psixologiyasi (sohalar bo‘yicha)» ixtisosligi bo’yicha malakaviy imtihon
D A S T U R I

O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi

Rayosatining 2026- yil «____»_____ ____-sonli qarori bilan tasdiqlangan

TOShKENT – 2026

ANNOTATSIYA

“Inson kasbiy faoliyati psixologiyasi (sohalar bo‘yicha)” ixtisosligidan malakaviy imtihon qabul qilish dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni hamda psixologiya fanini rivojlantirishga oid mavjud me’yoriy hujjatlar asosida yaratilgan bo‘lib, psixolog kadrlar tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uning asosiy maqsadi – kasbiy faoliyat psixologiyasi ixtisosligi bo‘yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fan shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog‘lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko‘rsatib berishi lozim.

Tuzuvchilar: psixol.f.d., prof. F.A.Akramova
psixol.f.d., prof. S.N.Jo‘rayeva

Taqrizchi: psixol.f.d., prof. B.S.Abdullayeva
psixol.f.d., prof. E.N.Sattarov

Ushbu dastur universitet Ilmiy-texnik kengashining 2026- yil 6- yanvardagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda kasbiy faoliyat psixologiyasi, kasbiy faoliyatda shaxsning shakllanishi, kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishi, kasbiy professiogrammani takomillashtirish va bu borada ilmiy izlanishlarni kuchaytirish maslasi dolzarb ahamiyatga egadir.

Inson kasbiy faoliyati psixologiyasi (sohalar bo‘yicha) ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon qabul qilishda talabgorlarning kasbiy faoliyat psixologiyasi fanidagi nazariy-fundamental muammolarni tushunish, ularni tahlil eta olish va hal etishga nisbatan fanda shakllangan yondashuvlar haqidagi tasavvurlarini nazorat qilish yuzasidan imtihon o‘tkazilishi ko‘zda tutiladi. Bunda ixtisoslik tarkibidagi har bir fan sohasi bo‘yicha quyidagi mavzuviy yo‘nalishlarda talabgorlar bilimining tekshirilishi rejalashtiriladi.

Dastur inson kasbiy faoliyat psixologiyasi (sohalar bo‘yicha) borasidagi qarashlarning o‘zaro bog‘liq jihatlarini bayon etishga mo‘ljallangan. Shaxsning kasbiy shakllanishi, kasbiy adaptatsiya, kasbiy professiogramma borasidagi fikr rivojlanishini izchil o‘rganish bo‘lg‘usi mutaxassislarga hozirgi davrda o‘tmishning ilg‘or psixologiyasini uzviy davomi ekanligini ko‘rsatish kelajak psixologik fikrlar taraqqiyoti yo‘nalishlarini anglab olishga yordam beradi.

“Inson kasbiy faoliyati psixologiyasi (sohalar bo‘yicha)” ixtisosligi bo‘yicha dasturning maqsad va vazifalari: talabgorlarni kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish; kasbiy faoliyat psixologiyasiga oid fikrlarni shakllanishi negizini o‘rganish va tadqiq etish; kasbiy psixologiyaga doir bilimlarning nazariy asoslarini yaratish; umumiy tarraqqiyot mezonlari hamda psixik tamoyillarni tadqiq etish; psixologiya sohalaridagi kasbiy professiogramma va uning zamonaviy tamoyillarini tushunish hamda ularni amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

“Inson kasbiy faoliyati psixologiyasi (sohalar bo‘yicha)” fanidan bilim va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan talablar:

mazkur ixtisoslikni o‘rganish jarayonida quyidagi tushunchalarni bilish va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur:

- kasbiy psixologiyaning fan sifatidagi tavsifi, fanlar tizimidagi o‘rni;
- shaxsning kasbiy shakllanishi haqidagi ilmiy nazariy qarashlar;
- kasbiy faoliyatning psixika taraqqiyotdagi roli;
- kasbiy tanlov va kasbiy adaptatsiya;
- kasbiy professiogramma va uning turlari;
-kasbiy faoliyatda shaxs psixologiyasi muammolariga nisbatan mavjud turli nazariy yondashuvlar;
- kasbiy inqirozlar va uning o‘ziga xos jihatlari;
- shaxs psixodiagnostikasining asosiy yo‘nalishlari va muammolari;
-kasbiy o‘zini-o‘zi anglashi va o‘zini-o‘zi tarbiyalashi muammosi;
- kasbiy psixologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari.
- kasbiy faoliyat motivlari haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur.

Talabgor “Inson kasbiy faoliyati psixologiyasi (sohalar bo‘yicha)” fanini o‘rganish davomida kasbiy faoliyat strukturasi, kasb tanlash motivlari, kasbiy inqirozlar, kasbiy adaptatsiya, kasbiy professiogramma va uning tipologiyasiga oid qarashlarni tahlil qilish, ilmiy-amaliy farazlarni muayyan konseptual qarashlar asosida tizimlashtira olishi hamda amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajarish ko‘nikmasini namoyon eta olishlari zarur.

Talabgorning Inson kasbiy faoliyati psixologiyasi (sohalar bo‘yicha)dan o‘rganilishi zarur bo‘lgan minimum bilimlar mazmuni.

1. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining shakllanish tarixi. Kasb psixologiyasini boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Kasb psixologiyasining amaliy asoslari va o‘quv fanlari o‘rni. Tadqiqot metodlarining klassifikatsiyasi. Genetik metodlar, praksimetrik metodlar, psixosimmetrik metodlar, ekspremental metodlar, matematik statistik metodlar

2. Kasbiy shakllanish. Shaxsning kasbiy shakllanishi determinatsiyasi. Kasbiy shakllanish bosqichlari. Shaxs tuzilishida kasbiy shartlashganlik.

3. Professiografiya. Kasbiy faoliyatda mutaxassis shaxsi va uning shakllanishi. Kasblarni psixologik o‘rganishni tashkil qilish. Kasbiy faoliyat psixologiyasida kasbga yo‘naltirish va kasbiy konsultatsiya, kasbiy ta’lim va ishchanlik qobiliyati, mehnat xavfsizligi, kasbiy tanlov va kadrlarni joy-joyiga qo‘yish, mehnat faoliyatining reabilitatsiyasi va boshqalar. Insonning kasbiy-muhim sifatlari tushunchasi. Umumiy va maxsus qobiliyatlar: mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini tashkil qilishning xususiyatlari. Professiografiya tushunchasi, professiogramma, kasb psixogrammasi. Professiogramma va psixogrammaning tuzilishi.

4. Shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi anglash jarayonining mohiyati. Kasbiy o‘zini o‘zi belgilash inson hayotida muhim qarorni qabul qilishi sifatida. Kasbiy o‘zini o‘zi belgilash va hayot mazmuni konsepsiyasi. Kasbiy o‘zini o‘zi anglashning ijtimoiy-iqtisodiy determinantlari. Kasbiy o‘zini o‘zi anglash bosqichlari.

5. Kasbni shaxs tuzilishi bilan bog‘langanligi. Shaxsning yo‘nalganligi va kasbiy bilimdonlik. Kasbiy bilimdonlikning asosiy komponentlari: ijtimoiy-umumiy, maxsus bilimdonlik, shaxsiy va autokompetentlik. Kasbiy o‘zini o‘zi anglashdagi ziddiyatlarning turlari va ko‘rinishlari: xulq-atvorli, motivasion-ehtiyojli, kognitiv-faoliyatli va ma’noli.

6. Kasb tanlashning psixologik asoslari. Kasbiy faoliyatga psixologik hamkorlikning asosiy bosqichlari. Psixodiagnostika va kasbiy konsultatsiya. Kasbiy konsultatsiyaning psixologik texnologiyasi. Tashkiliy madaniyat uyushmasi. Malaka oshirish kvalifikatsiyasi, shaxsiy ta’limni tashkil qilish. Kadrlar attestatsiyasi ilmiy-amaliy muammo sifatida. Attestatsiya metodikasi va protsedurasi. Ishlovchilarning kasbiy-psixologik imkoniyatlarni baholash. Yakuniy attestatsiyaning tartib qoidalari va faoliyat natijalarini baholash. Kadrlar faoliyatini me’yoriy-huquqiy jihatdan ta’minlanganligi.

7. Shaxsning kasbiy shakllanishi. Kasbiy shakllanishni psixologik qo‘llab-quvvatlash. Kasbiy inqirozlar tipologiyasi, inqirozlarni o‘rganish metodlari, kasbiy rivojlanishdagi asosiy inqirozar va omillar, kasbiy shakllanishdagi inqirozlarning psixologik xususiyatlari.

8. Kasbga yaroqlilik va kasbiy layoqat. “Kasbiy layoqat xarakteristikasi”. Kasbiy layoqatni baholashning ahamiyati. Kasbiy layoqatga ta’sir etuvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar. Xodimlarni joylashtirish va layoqatini baholash bo‘yicha psixologik maslahat.

9. Kasbiy salomatlik muammosi. Kasbiy salomatlikni saqlash. Kasbiy adaptatsiya. Kasbiy faoliyatdagi stress. Kasbiy ish qobiliyati omillari. Kasbiy reabilitatsiya. “Kasbiy charchoq” fenomeni va uning sabablari. Stressga bardoshlilik va charchoqni yengib o‘tish resurslari. Shaxsiy va ijtimoiy resurslar.

19.00.03 – Inson kasbiy faoliyati psixologiyasi (sohalar bo‘yicha) ixtisosligi bo‘yicha imtihon savollari:

1. Kasb psixologiyasining mohiyatini ochib bering
2. Kasbiy moslashish muammolarini sanab o‘ting
3. Temperament va kasbiy malakalarni egallash orasidagi bog‘liqlikni izohlang.
4. Kasbiy psixologiya fanining asosiy vazifalarini yoritib bering
5. Kasbiy psixologiya fanining qonuniyatlari, metodlari va prinsiplarini tahlil qiling
6. Professiografiyaning mohiyati va uning asosiy tamoyillarini ochib bering.
7. Kasbning psixologik mohiyatini ochishda fanlararo integratsiyaning mohiyatini yoriting
8. Shaxsning kasbiy shakllanishi determinatsiyasini ochib bering.
9. Kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi haqida ma’lumot bering
10. Kasb psixologiyasining predmetini ochib bering.
11. Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlarini qiyosiy tahlil qiling
12. Shaxsning kasbiy shakllanishining nazariy asoslarini yoritib bering
13. Shaxsning kasbiy-muhim sifatlari, umumiy va maxsus qobiliyatlarini tahlil qiling
14. Shaxsiy kasbiy reja va kasbga yo‘naltirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bering
15. Shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi anglash tushunchasini yoritib bering
16. Kasbiy o‘zini o‘zi anglash bosqichlarini yoritib bering
17. Kasbiy o‘zini o‘zi anglash jarayonidagi ziddiyatlarni ochib bering

18. Kasbiy o‘zini o‘zi anglash jarayonini boshqarish masalasini tahlil qiling
19. Kasbiy tanlovning psixologik asoslari, kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish va joy-joyiga qo‘yish masalasini tahlil qiling
20. Shaxsning kasbiy shakllanishidagi inqirozlarni yoritib bering
21. Shaxsning kasbiy shakllanishida psixologik qo‘llab-quvvatlash masalasini tahlil qiling
22. Kasbiy yaroqlilik va kasbiy layoqat tushunchalarini tahlil qilib, misollar keltiring
23. Kasbiy salomatlik psixologiyasini tushuntirib bering
24. Professiografiyaga qo‘yiladigan talabalarga o‘z munosabatingizni bildiring.
25. Kasbiy faoliyatda mutaxassis shaxsi va uning shakllanishi bo‘yicha o‘z pozisiyangizni izohlang
26. Kasblarni psixologik o‘rganishni tashkil qilish masalasini yoritib bering.
27. Mehnat xavfsizligini tushuntirib bering.
28. Kasbiy tanlov va kadrlarni joy-joyiga qo‘yish masalasini yoritib bering
29. Mehnat faoliyatining reabilitatsiyasi haqida tushuncha bering.
30. Insonning kasbiy-muhim sifatlari tushunchasini yoritib bering.
31. Professiografiya tushunchasiga izoh bering
32. Kasb psixogrammasi qanday shakllantiriladi?
33. Professiogramma va psixogrammaning tuzilishini farqlab bering.
34. Kasbga yaroqlilik va kasbiy layoqat tushunchalarini sharhlang
35. “Kasbiy layoqat xarakteristikasi”ning mazmunini tahlil qiling.
36. Kasbiy layoqatni baholashning ahamiyatini yoritib bering.
37. Kasbiy salomatlikka ta’sir etuvchi omillarni sanab o‘ting
38. Kasbiy salomatlikni saqlashda qanday omillar ta’sir etishini tahlil qiling.
39. Kasbiy adaptatsiyaning determinarntlarini yoritib bering.
40. Kasbiy faoliyatdagi stressga ta’sir etuvchi omillarni aytib bering.
41. Kasbiy ish qobiliyati omillarini yoritib bering.
42. “Kasbiy charchoq” fenomeni va uning sabablarini tushuntirib bering.
43. Kasbiy stressga bardoshlilik va charchoqni yengib o‘tish resurslarini yoritib bering.
44. Shaxsiy va ijtimoiy resurslarni izohlab bering.
45. Soha bo‘yicha kasbiy inqirozlar va ularni bartaraf etishning yo‘llarini sanab o‘ting
46. Soha bo‘yicha kasbiy faoliyatda mutaxassis shaxsiga qo‘yiladigan talablarni sharhlab bering
47. Kasbiy stress va uni keltirib chiqaruvchi omillarni yoritib bering
48. Malaka oshirish kvalifikatsiyasi, shaxsiy ta’limni tashkil qilish masalasini yoritib bering.
49. Kadrlar attestatsiyasi masalasini yoritib bering
50. Soha bo‘yicha kasbiy faoliyatda mutaxassisning ijtimoiy-moslashuvi muammosini tahlil qiling.

Talabgor javoblarini baxolash mezonlari:

Baholash mezonlari	**Maks. ball**
1. Fanni bilish darajasi	**30**
Asosiy nazariy bilimlar	15
Ixtisoslik bo‘yicha bilimlar	15
2. Tanqidiy fikrlash va tahlil	**25**
G‘oyalarni umumlashtira olish	13
Mantiqiy fikr va dalil keltirish	12

3. Nutq va taqdimot madaniyati	**20**
Tuzilishi va izchillik	10
Til va ifoda aniqligi	10
4. Savollarga javob berish sifati	**25**
Mazmun va aniqlik	15
Moslashuvchanlik va mulohaza	5
Xotirjamlik, professional yondashuv	5
UMUMIY BALL	**100**

FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent. O‘zbekiston, 2020
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O‘zbekiston», 2016 yil, 56 bet.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O‘zbekiston», 2017 yil, 48 bet.
4. Бодров В.А. Психология профессионалной пригодности. М., ПЕР СЕ, 2001, -511с.
5. Павлова Т.Л. Профориентатсия школников: Диагностика и развитие профессионалной зрелости. М., Сфера, 2005, 128с.
6. Пряжников Н.С. Активнқе методи профессионалного самоопределения. М.:МГПП,2001.
7. Пряжников Н.С., Пряжникова Е.Ю. Профориентатсия. М., Академия. 2005, 496 с.
8. Sog‘inov N., Xabubullaev F. “O‘quvchilar bilan olib boriladigan kasb tanlash, kasbga yo‘llash ishlarini tashkil qilishda psixodiognostika metodlaridan foydalanish” Toshkent TDPU, 1996.
9. Sunnatova R., Parpiev U.«Kasbga yo‘naltirish maslahatlari: metodlar, muammolar, imkoniyatlar». Toshkent, TDPU, 2001.
10. Стресс, вигорание, совладание в современном контексте. Под ред. Е.А.сергиенко. М., Академический проект, 2015.-192с.
11. Теория и практика профессионалного самоопределения. М.,1999.
12. Тюшев Ю. Вибор профессии: тренинг для подростков. Питер, 2009.
13. Черникова Т.В. Профессионалная поддержка старшеклассников. М., Глобус, 2006,256-с.
14. Jo`rayeva S.N., Raxmonova N.A., Xayitova Z.M. «Профессиональная психология» Darslik T. TGPU 2024